


II  
2024

# ELECTRONIC EDUCATION

SCIENTIFIC  
JOURNAL



## TAHRIRIYAT

**Bosh muharrir**

**Laqayev Saidaxmad Norjigitovich**

fizika-matematika fanlari doktori, akademik

**Bosh muharrir o'rinnbosari**

**Ro'ziyev Rauf Axmadovich**

fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

**Mas'ul muharrir**

**Mirsanov Uralboy Mukhammadiyevich**

pedagogika fanlari doktori DSc, dotsent

**Editor-in-Chief**

**Saidakhmad Norjigitovich Lakayev**

doctor of physical and mathematical sciences,  
academician

**Deputy Editor-in-Chief**

**Ruziyev Raup Akhmadovich**

Candidate of Physical and Mathematical Sciences,  
Associate Professor

**Responsible editor**

**Mirsanov Uralboy Mukhammadiyevich**

doctor of Pedagogical Sciences DSc, Associate  
Professor

## TAHRIRIYAT A'ZOLARI

**Sobirov Baxodir Boypulatovich** – NavDPI rektori,  
texnika fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

**Djurayev Risbay Xaydarovich** – akademik  
(O'zbekiston)

**Shokin Yuriy Ivanovich** – akademik (Rossiya)

**Negmatov Sayibjon Sodiqovich** – akademik  
(O'zbekiston)

**Aripov Mersaid Mirsiddikovich** – fizika-matematika  
fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

**Turabdjyanov Sadritdin Maxamatdinovich** – texnika  
fanlari doktori, akademik (O'zbekiston)

**Raximov Isomiddin Sattarovich** – fizika-matematika  
fanlari doktori, professor (Malayziya)

**Shariy Sergey Petrovich** – fizika-matematika fanlari  
doktori, professor (Rossiya).

**Ajimuxammedov Iskandar Maratovich** – texnika  
fanlari doktori, professor (Rossiya).

**Ibraimov Xolboy** – pedagogika fanlari doktori,  
akademik (O'zbekiston)

**Yunusova Dilfuza Isroilovna** – pedagogika fanlari  
doktori, professor (O'zbekiston)

**Aloyev Raxmatillo Djurayevich** – fizika-matematika  
fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

**Abdullayeva Shaxzoda Abdullayevna** – pedagogika  
fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

**Mo'minov Bahodir Boltayevich** – texnika fanlari  
doktori, professor (O'zbekiston)

**Korshunov Igor Lvovich** – texnika fanlari nomzodi,  
dotsent. (Rossiya)

**Kolbanyov Mixail Olegovich** – texnika fanlari  
doktori, professor. (Rossiya)

**Verzun Natalya Arkadyevna** – texnika fanlari  
nomzodi, dotsent. (Rossiya)

**Maxmudova Dilfuza Mileyevna** – pedagogika  
fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

**Xudjayev Muxiddin Kushshayevich** – texnika  
fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston).

**Xolmurodov Abdulhamid Erkinovich** – fizika-  
matematika fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

**Stelmashonok Yelena Viktorovna** – iqtisod fanlari  
doktori, professor. (Rossiya)

**Tatarnikova Tatyana Mixaylovna** – texnika fanlari  
doktori, professor. (Rossiya)

**Alekseyev Vladimir Vasilyevich** – texnika fanlari  
doktori, professor. (Rossiya)

**Satikov Igor Abuzarovich** – fizika-matematika fanlari  
nomzodi, dotsent. (Belarus)

**Boyarshtanova Oksana Aleksandrovna** – fizika-  
matematika fanlari nomzodi, dotsent. (Belarus)

**Makarenya Sergey Nikolayevich** – texnika fanlari  
nomzodi, dotsent. (Belarus)

**Sednina Marina Aleksandrovna** – texnika fanlari  
nomzodi, dotsent. (Belarus)

**Ibragimov Abdusattar Turgunovich** – texnika fanlari  
doktori, dotsent (O'zbekiston)

**Kabiljanova Firuza Azimovna** – fizika-matematika  
fanlari nomzodi, dotsent. (O'zbekiston)

**Lutfillayev Maxmud Xasanovich** – pedagogika fanlari  
doktori, dotsent (O'zbekiston).

**Ergasheva Gulruxsor Surxonidinovna** – pedagogika  
fanlari doktori (DSc), dotsent (O'zbekiston).

**Norov Abdusait Muradovich** – texnika fanlari  
bo'yicha falsafa doktori, dotsent (O'zbekiston).

**Yuldashev Ismoil Abriyevich** – pedagogika fanlari  
bo'yicha falsafa doktori, dotsent (O'zbekiston).

**Karaxonova Oysara Yuldashevna** – pedagogika fanlari  
bo'yicha falsafa doktori, (O'zbekiston).

**Kurbaniyazova Zamira Kalbaevna** – pedagogika  
fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston).

**Nasirova Shaira Narmuradovna** – texnika fanlari  
doktori, professor (O'zbekiston).

**Nasridinov Ilxam Burxanidinovich** – texnika fanlari  
nomzodi, dotsent (O'zbekiston).

**Xujjiyev Sodiq Oltiyevich** – biologiya fanlari nomzodi,  
dotsent (O'zbekiston).

**Suvonov Olim Omonovich** – texnika fanlari nomzodi,  
dotsent (O'zbekiston).

**O’tapov Toyir Usmonovich** – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (O’zbekiston).

**Ibragimov Alimjon Artikbayevich** – fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent (O’zbekiston).

**Yodgorov G’ayrat Ro’ziyevich** – fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent (O’zbekiston).

**Xudoyorov Shuxrat Jumaqulovich** – fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent (O’zbekiston)

**Baxodirova Umida Baxodirovna** – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (O’zbekiston).

**Toxirov Feruz Jamoliddinovich** – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (O’zbekiston).

**Xamroyeva Dilafro‘z Namozovna** – fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (O’zbekiston).

**Jo‘rakulov Tolib Toxirovich** – texnik muharrir

© Mazkur jurnal O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasi rayosatining 2022-yil 28-fevraldagи 312/6 qaroriga asosan Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsija etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

Address: Navoiy sh., Janubiy ko‘chasi, 1-A uy. (1-A, South Street, Navoi city) URL:  
<http://www.el-nspi.uz>

**MUNDARIJA**  
**Aniq fanlarda axborot texnologiyalari**

**Ergasheva G. S.****TA'LIM SIFATINI BAHOLASH BO'YICHA XALQARO TADQIQOTLAR: MAZMUN VA  
TAHLIL**

7

**Xamroyev Y. X.****TA'LIM JARAYONI UCHUN MOBIL ILOVALARNI JORIY ETISH MUAMMOLARI**

19

**Yuldashev I. A.****AXBOROT TIZIMLARI YORDAMIDA TALABALAR BILIMINI PEDAGOGIK  
DIAGNOSTIKA QILISH MASALALAR**

32

**Tursunov M. A.****TA'LIM JARAYONIDA RAQAMLI DARSLIKNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI**

43

**Abdullayeva D. A.****TEXNIKA OLY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINI AXBOROT  
TEXNOLOGIYALARIGA OID KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY  
O'QUV VOSITALARDAN FOYDALANISH**

59

**Sindarov S. K.****BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI AXBOROT TEXNOLOGIYALARIGA OID  
KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TA'LIM MUHITLARINING  
DIDAKTIK IMKONIYATLARI**

63

**Djurayev D. D.****TARMOQ TEXNOLOGIYALARI BO'YICHA AMALIY VA LABORATORIYA DARSLARINI  
TASHKIL ETISH METODIKASI**

76

**Xolbekov Sh. O., Ochilov Sh. Sh.****EHTIMOLLAR NAZARIYASI VA MATEMATIK STATISTIKA ELEMENTLARINI QISHLOQ-  
XO'JALIK MASALALARINI YECHISHDA QO'LLANILISHI**

88

**Jo'rakulov T. T., Raximov F.A., Sa'dullayeva M. L.****TA'LIM JARAYONIDA MOBIL TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK  
JIHATLARI**

95

**Taylakov U. K.****UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA "INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI"  
FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY O'QUV VOSITALARIDAN FOYDALANISH**

107

**Ruziyev R.A.****UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA BO'LAJAK INFORMATIKA O'QITUVCHILARINING  
KASBIY FAOLIYATINI SHAKLLANTRISH**

122

**Tabiiy fanlarda axborot texnologiyalari**

**Nurutdinova F. M.****INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA BIOKIMYO FANIDAN DARSLARNI O'TISHDA  
TALABALAR KOMPETENTLIGINI MODELLASHTIRISH**

133

## СОДЕРЖАНИЕ

### *Информационные технологии в точных науках*

<b>Эргашева Г. С.</b> МЕЖДУНАРОДНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ ПО ОЦЕНКЕ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ: СОДЕРЖАНИЕ И АНАЛИЗ	7
<b>Хамроев Я. Х.</b> ПРОБЛЕМЫ ВНЕДРЕНИЯ МОБИЛЬНЫХ ПРИЛОЖЕНИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЙ ПРОЦЕСС	19
<b>Юлдошев И. А.</b> ВОПРОСЫ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДИАГНОСТИКИ ЗНАНИЙ УЧАЩИХСЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНФОРМАЦИОННЫХ СИСТЕМ	32
<b>Турсунов М. А.</b> ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ЦИФРОВОГО УЧЕБНИКА В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ	43
<b>Абдуллаева Д. А.</b> ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ СРЕДСТВ ПРИ РАЗВИТИИ ИНФОРМАЦИОННО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ ТЕХНИЧЕСКИХ ВУЗОВ	53
<b>Синдаров С. К.</b> ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ СРЕДЫ ЦИФРОВОГО ОБРАЗОВАНИЯ В РАЗВИТИИ ИНФОРМАЦИОННО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ	63
<b>Джусураев Д. Д.</b> МЕТОДОЛОГИЯ ОРГАНИЗАЦИИ ПРАКТИЧЕСКИХ И ЛАБОРАТОРНЫХ КУРСОВ ПО СЕТЕВЫМ ТЕХНОЛОГИЯМ	76
<b>Холбеков Ш. О., Очилов Ш.</b> ПРИМЕНЕНИЕ ТЕОРИИ ВЕРОЯТНОСТЕЙ И ЭЛЕМЕНТОВ МАТЕМАТИЧЕСКОЙ СТАТИСТИКИ ПРИ РЕШЕНИИ ЗАДАЧ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА	88
<b>Журакулов Т. Т., Рахимов Ф. А., Саъдуллаева М. Л.</b> ДИДАКТИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МОБИЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ	95
<b>Тайлаков У. К.</b> ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ СРЕДСТВ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ НАУКИ «ИНФОРМАЦИЯ И ИНФОРМАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ» В ВУЗАХ	102
<b>Рузиев Р. А.</b> ОРГАНИЗАЦИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИНФОРМАТИКИ В СИСТЕМЕ НЕПРЕРЫВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ	122

*Информационные технологии в естественных науках*

<b>Нурутдинова Ф. М.</b> МОДЕЛИРОВАНИЕ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ ПРИ ПРОХОЖДЕНИИ УРОКОВ БИОХИМИИ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННОГО ПОДХОДА	133
--	-----

**CONTENT**

## *Information technologies in exact sciences*

**Ergasheva Gulrukhsor**

*INTERNATIONAL RESEARCHES ON ASSESSMENT OF EDUCATION QUALITY:  
CONTENT AND ANALYSIS*

7

**Khamroev Yakubzhon**

*PROBLEMS OF IMPLEMENTING MOBILE APPLICATIONS INTO THE EDUCATIONAL  
PROCESS*

19

**Yuldashev Ismail**

*ISSUES OF PEDAGOGICAL DIAGNOSTICS OF STUDENT KNOWLEDGE USING  
INFORMATION SYSTEMS*

32

**Tursunov Mirolim**

*DIDACTIC POSSIBILITIES OF DIGITAL TEXTBOOK IN THE EDUCATIONAL PROCESS*

43

**Abdullayeva Dildora**

*USE OF MODERN EDUCATIONAL TOOLS IN THE DEVELOPMENT OF INFORMATION  
AND TECHNOLOGICAL COMPETENCE OF TECHNICAL UNIVERSITY STUDENTS*

53

**Sindarov Sadriddin**

*DIDACTICAL POSSIBILITIES OF THE DIGITAL EDUCATION ENVIRONMENT IN THE  
DEVELOPMENT OF INFORMATION AND TECHNOLOGICAL COMPETENCE OF  
FUTURE TEACHERS*

63

**Djurayev Davron**

*METHODOLOGY OF ORGANIZING PRACTICAL AND LABORATORY COURSES ON  
NETWORK TECHNOLOGIES*

76

**Kholbekov Shokhsuvor, Ochilov Shokhruzbek**

*APPLICATION OF PROBABILITY THEORY AND ELEMENTS OF MATHEMATICAL  
STATISTICS IN SOLVING AGRICULTURAL PROBLEMS*

88

**Jurakulov Tolib, Rakhimov Furkat, Sadullaeva Maftuna**

*DIDACTICAL PRINCIPLES OF USING MOBILE TECHNOLOGIES IN THE  
EDUCATIONAL PROCESS*

95

**Taylakov Umid**

*USE OF MODERN EDUCATIONAL TOOLS IN TEACHING THE SCIENCE OF  
"INFORMATION AND INFORMATION TECHNOLOGIES" IN HIGH SCHOOLS*

102

**Raup Ruziev**

*ORGANIZATION OF PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE COMPUTER SCIENCE  
TEACHERS IN THE SYSTEM OF CONTINUING EDUCATION*

122

## *Information technologies in natural sciences*

**Nurutdinova Feruza**

*MODELING STUDENTS' COMPETENCE WHEN TAKING BIOCHEMISTRY LESSONS  
BASED ON AN INNOVATIVE APPROACH*

133

## Aniq fanlarda axborot texnologiyalari

### TEXNIKA OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARINI AXBOROT TEXNOLOGIYALARIGA OID KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY O‘QUV VOSITALARDAN FOYDALANISH

*Abdullayeva Dildora Anvarovna*

*Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti*

**Annotation.** Ushbu maqolada texnika oliv ta’lim muassasalari talabalarini axborot texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlanirish muammolari va yechimlariga oid olimlarning ishlarini tahlili berilgan. Shuningdek, mazkur maqolada texnika oliv ta’lim muassasalari talabalarini axborot texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlanirishda foydalaniadigan zamonaviy o‘quv vositalar taklif etilgan. Shu bilan birga ushbu maqolada taklif etilgan zamonaviy o‘quv vositalarni samaradorligini aniqlashga qaratilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari olib borilgan hamda uning samaradorlik darajasi Styudent-Fisher kriteriyasidan foydalaniib isbotlangan.

**Keywords:** zamonaviy o‘quv vosita, bulutli texnologiya, virtual muhit, axborot-ta’lim muhiti, ta’lim portalı, ta’limiy web-sayt, kompetentlik, mantiqiy, kreativ.

### ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ СРЕДСТВ ПРИ РАЗВИТИИ ИНФОРМАЦИОННО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ ТЕХНИЧЕСКИХ ВУЗОВ

*Абдуллаева Дилдора Анваровна*

*Навоийский государственный горно-технологический университет*

**Annotation.** В данной статье представлен анализ работ ученых по проблемам и решениям развития компетентности студентов технических вузов применительно к информационным технологиям. Также в данной статье предложены современные образовательные средства, используемые при развитии компетентности студентов технических вузов относительно информационных технологий. При этом были проведены педагогические эксперименты, направленные на определение эффективности предлагаемых в данной статье современных образовательных средств и доказан уровень их эффективности с помощью критерия Стьюдента-Фишера.

**Ключевые слова:** современный образовательный инструмент, облачные технологии, виртуальная среда, информационно-образовательная среда, образовательный портал, образовательный сайт, компетентность, логическое, креативное.

### USE OF MODERN EDUCATIONAL TOOLS IN THE DEVELOPMENT OF INFORMATION AND TECHNOLOGICAL COMPETENCE OF TECHNICAL UNIVERSITY STUDENTS

*Abdullayeva Dildora*

*Navoi State Mining and Technological University*

**Abstract:** This article provides an analysis of the work of scientists on the problems and solutions of developing the competence of students of technical higher education institutions in relation to information technology. Also, in this article, modern educational tools used in the development of the competence of students of technical higher education institutions in relation to information technologies are proposed. At the same time, pedagogical experiments aimed at determining the effectiveness of the modern educational tools proposed in this article were conducted and its level of effectiveness was proven using the Student-Fisher criterion.

**Key words:** modern educational tool, cloud technology, virtual environment, information-educational environment, educational portal, educational website, competence, logical, creative.

**Kirish.** Zamonaviy jamiyatda axborot texnologiyalari (AT) vositalariga bo‘lgan ehtiyojlar doimiy ravishda oshib borishi tufayli talabalarni, shu jumladan texnika oliv ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarining axborot texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirshda zamonaviy vositalardan foydalanish zarurati paydo bo‘lmoqda.

**Adabiyotlarning tahlili.** Zamonaviy o‘qitish vositalarining texnika oliv ta’lim muassasalari ta’lim va tarbiya jarayoniga keng joriy etilishi, axborot texnologiyalariga oid fanlardan ta’lim oluvchilar oldiga muntazam mustaqil ravishda ta’lim olish vazifasini yuklamoqda. Ushbu o‘qitish vositalarini yaratish, ulardan ta’lim tizimida foydalanish yaxshi samara berishi shubhasiz.

Texnika oliv ta’lim muassasalarida axborot texnologiyalariga oid fanlarni o‘qitishda zamonaviy o‘qitish vositalaridan foydalanish talabaning ko‘proq ichki imkoniyatlari, intellektual salohiyati, axborotni qabul qilish va o‘zlashtirish xususiyatlariga bevosita bog‘liq.

Bu borada, ya’ni oliv ta’lim muassasalarida axborot texnologiyalariga oid fanlarni o‘qitish samaradorligini oshirishda va talabalarining mustaqil ta’limini tashkil etishda zamonaviy o‘quv vositalardan foydalanish nazariyasi va amaliyotiga oid tadqiqotlar U.M.Mirsanova [1], D.R.Ruziyeva [2], F.J.Toxirov [3], A.O.Norbekov [4], M.R.Fayziyeva [5], P.E.Nuraliyeva [6], N.A.Kayumova [7], Luís Filipe Leite Barbosa [8], L.M.Ivkina [9], Arturo Rojas López [10] kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Ularning bildirishicha, bo‘lajak mutaxassislarini tayyorlashda axborot-ta’lim muhitlari, ta’lim portallari, ta’limiy web-saytlar, virtual muhitlar, masofaviy o‘qitish tizimlari va bulutli xizmatlar zamonaviy o‘qitish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur olimlarning tadqiqotlarida taklif etilayotgan o‘quv vositalaridan foydalanib bo‘lajak axborot texnologiyalari mutaxassislarini tayyorlash metodikasini ishlab chiqqan.

Jumladan, U.M.Mirsanova talabalarining mustaqil o‘quv faoliyatida jamoa bo‘lib dasturlashni o‘rgatish g‘oyasini ilgari surgan. Uning tadqiqotida virtual muhitlardan foydalanib, jamoa bo‘lib dasturlashni o‘rgatish metodikasi keltirilgan [1].

D.R.Ruziyeva oliy ta’lim muassasalarida dasturlash tillarini o‘qitishda zamonaviy o‘qitish vositalaridan, ya’ni axborot-ta’lim muhitlarini foydalanishni taklif etgan. Shuningdek, pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarining dasturlash tillariga oid fanlardan o‘quv faoliyatini mustaqil tashkil etishga qaratilgan ochiq axborot-ta’lim muhitidan foydalanish metodikasini ishlab chiqqan [2]. F.J.Toxirovning tadqiqotida talabalarning dasturlashga oid algoritmik fikrlashini rivojlantirishda xorijiy ta’lim portallaridan foydalanishga oid taklif va tavsiyalar berib o’tgan [3].

A.O.Norbekov pedagogika oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak matematika va informatika o‘qituvchilarini tayyorlashda kasbiy fan sifatida o‘qilib kelinayotgan “Kompyuter ta’minoti” fanini o‘qitish samaradorligini oshirishda va talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etishda ochiq axborot-ta’lim muhiti zamonaviy o‘quv vosita bo‘lib xizmat qilishini nazariya va amaliy jihatdan asoslagan [4].

M.R.Fayziyevaning bildirishicha, o‘quv jarayoniga moslashuvchi WEB tizimlar talabalarning web-dasturlashga oid ijodiy qobiliyatini oshirishda, kognitiv fikrlashini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik dasturiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Uning tadqiqotida “Web-dasturlash” fanini o‘qitishda o‘quv jarayoniga moslashuvchi Web tizimdan foydalanish metodikasi ishlab chiqilgan va samarali ekanligi pedagogik tajriba-sinov ishlari yordamida ilmiy asoslangan [5].

P.E.Nuraliyeva talabalarning raqamli texnologiyalariga oid kompetentligini shakllantirishda ta’lim platformasidan foydalanish metodikasini ishlab chiqqan. Uning ishida talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari ishlab chiqilgan: mustaqil bilim olish; o‘z-o‘zini nazorat qilish; bilish faoliyatiga ta’sir etish omillarini relevant axborotlar ustida ishlash jarayoniga o‘zaro integrativlik funksiyalarda joriy etish [6].

N.A.Kayumova bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligi rivojlantirishda ta’limga oid web-saytlardan foydalanish metodikasini ishlab chiqqan. Shuningdek, bo‘lajak informatika o‘qituvchilarini masofaviy loyihalar tayyorlashga oid ijodiy qobiliyatini oshirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqqan [7].

Bu kabi tadqiqotlar Luís Filipe Leite Barbosa [8], Л.М.Ивкина [9], Arturo Rojas López [10]larning ishlarida ham keltirilgan bo‘lib, ularning bildirishicha, axborot texnologiyalariga oid fanlarni o‘qitish samaradorligini oshirishda va talabalarni bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishda bulutli ximatlar, virtual muhitlar va Web 2 xizmatlar zamonaviy pedagogik dasturiy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Ushbu olimlarning ishlarini tahlil etish asosida aytish mumkinki, texnika oliv ta’lim muassasalari talabalarining axborot texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirishda zamonaviy o‘quv vositalardan, jumladan global tarmoqning manzillarida joylashtirilgan axborot-ta’lim muhitlari, ta’lim portallari, virtual muhit va bulutli xizmatlardan foydalanish lozim degan xulosaga kelindi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Global tarmoqning interfaol imkoniyatlari axborot texnologiyalariga oid fanlarni ta’limining jamoaviy imkoniyatlarini ta’minlaydi. Tinglovchi onlayn aloqa muhiti orqali tengdoshlari bilan o‘quv loyihalarini jamoaviy bo‘lib bajarishi imkoniyati tug‘iladi. Shuningdek, turli geografik hududlarda interfaol muhokamalarni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Internet tarmog‘i orqali axborto-ta’lim muhitlari, ta’lim portallari, virtual muhit va bulutli xizmatlardan foydalanib o‘qitishni boshqaruvchi professor-o‘qituvchiga talabalar bilan savol-javob va tushunmagan mavzularni tushuntirish uchun ma’lum vaqt ni rejalashtirib, o‘sha vaqtida onlayn munozaralar olib borish imkoniyatlari vujudga keladi.

Bu borada, xorijiy davlatlarda global tarmoqning interfaol imkoniyatlari hamda masofaviy o‘qitish, axborot-ta’lim muhitlari, ta’lim portallari, virtual muhit va bulutli xizmatlardan keng ko‘lamda foydalanilib kelinmoqda.

Xususan, bulutli xizmatlarni amalga oshirishga mo‘ljallangan *Google Drive*, *Cloud Mail.ru*, *MediaFire*, *Yandex Disk*, *Microsoft OneDrive*, *Copy.com*, *Apple iCloud* kabi muhitlardan ta’lim jarayonida foydalanilib kelinmoqda. Ushbu bulutli xizmatlar foydalanuvchilar qurilmadan fayllarni saqlashi va yuklab olishi yoki prosessor-o‘qituvchilar tomonidan ishlab chiqilgan pedagogik dasturiy vositalarni global tarmoqda saqlash imkonini beradi. Bunda talabalar alohida fayl yoki papkaga kirish huquqini berishi mumkin. Kirish havola yoki elektron pochta xabarnomasi

orqali uzatiladi va kirish imkoniyatlarini ham sozlashingiz mumkin: ta'lif oluvchi, sharhlovchi yoki muharrir. Shuningdek, professor-o'qitvchi-talaba yoki talaba-talaba integratsiyalashgan xizmatlaridan foydalangan holda bir-birlari bilan muammosiz muloqot qilishlari va o'zaro aloqada bo'lishlari mumkin. Shuningdek, saqlashda kerakli fayllarni qidirishni optimallashtirish uchun xodimlarga kompaniya ma'lumotlar majmuasi orasidan kerakli fayllarni topishga yordam beradigan aqli qidiruv mavjud. Shu bilan birga ushbu xizmatlar quyidagi xususiyatlarga ega:

- foydalanuvchi kompyuteridan ma'lumotlarni sinxronlashtirish va yuklab olingan fayllarni ko'rish imkonini beradi. Foydalanuvchilar yoki hamkasblar tomonidan kiritilgan o'zgarishlar avtomatik ravishda qurilmaga o'tkaziladi;
- foydalanuvchi o'z diskida kirgan uchinchi tomon fayllarini ko'rishi imkoniyatini beradi;
- integratsiyalashgan hamkorlik vositalari: eslatmalar, hujjatlar, uchrashuvlar va boshqalar;
- maxfiy ma'lumotlar uchun fayllarni avtomatik ravishda skanerlaydi va ularga uchinchi tomon kirishini cheklash imkonini beradi;
- Internetga ulanmasdan kirish va fayllar hamda hujjatlar bilan ishslash.

Bu kabi xususiyatlar yordamida texnika oliy ta'lif muassasalari talabalarni mustaqil ta'lmini samarali tashkil etish asosida, ularning axborot texnologiyalariga oid motivatsiyasini oshirishga, kreativ va kognitiv fikrlashini rivojlantirishda muhit texnologiya bo'lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga bugungi kunda xorijiy davlatlarda bulutli texnologiyalarga asoslangan ta'lif platformalari yaratilgan bo'lib, ular dan informatika va axborot texnologiyalariga oid fanlarni o'qitish samaradorligini oshirshda va mustaqil ta'lmini takomillashtirishda samarali foydalanilib kelinmoqda. Bularga misol sifatida *Microsoft, Google, A Cloud Guru, Canvas, Kahoot!, Edlio, Evernote, Coursera, Knowledge Matters, Blackboard, ClassFlow, Muzzy Lane, Nearpod, Go Noodle, Matific, Book Creator, Explain Everything, Ardusat, Wonder Workshop, Canva*,

---

Labster, Claroline, Dokeos, LAMS, OLAT, Sakai, Illias, Atutor kabilarni keltirish mumkin.

Ushbu bulutli xizmatlarga asoslangan platformalar professor-o‘qituvchi va talabalar uchun turli didaktik vositalarni ishlab chiqishda hamda mashg‘ulotlarni loyihalashda zamonaviy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur platformalar yordamida turli darajadagi onlayn testlarini ishlab chiqish, krossvordlar yaratish, viktorinalar va aqliy o‘yinlarni o‘tkazish kabi imkoniyatlarga ega hisoblanadi. Bular yordamida texnika oliv ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan informatika va axborot texnologiyalariga oid fanlarni samarali olib borishga, talabalar bilimini onlayn baholashga va axborot texnologiyalariga doir mantiqiy, algoritmik fikrlashini rivojlantirishga erishish imkonini beradi.

Bu kabi bulutli xizmatlarga asoslangan ta’lim platformalari bilan birga, informatika va axborot texnologiyalariga oid fanlarni o‘qitishda <http://www.edu.ru>, <http://window.edu.ru/>, <http://fcior.edu.ru> kabi axborot-ta’lim muhitlari, ta’lim portallari va ta’limga oid web-saytlardan foydalanish muhim sanaladi. Chunki ushbu muhitlarga joylashtirilgan elektron ta’lim resurslar, jumladan videodarslar yordamida kompyutering amaliy va instrumental dasturlaridan foydalanishni, o‘rnatishni hamda turli loyihalar ishlab chiqishga doir ijodiy qobiliyatini oshirish imkonini beradi.

Yuqorida kelitirilgan muhitlar va bulutli ximatlardan mashg‘ulotlarda samarali foydalanishda interaktiv doskalar muhim sanaladi. Shuning uchun texnika oliv ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan informatika va axborot texnologiyalariga oid fanlardan mashg‘ulotlarni tashkil etishda <http://www.kvazar-micro.com>, <http://www.tds-prometey.ru>, <http://www.tds-prometey.ru>, <http://www.smartboard.ru>, <http://www.hitachi-interactive.ru>, <http://panaboard.ru/index.htm>, <http://walk-and-talk.ru/index.htm>, <http://www.nd.ru>, <http://stratum.ac.ru>, <http://www.ecoinvent.ru> kabi interaktiv diskalardan foydalanish lozim. Tavsiya etilayotgan interaktiv doskalar yordamida professor-o‘qituvchi mashg‘ulotlarni samarali olib borishga, talabalarning

---

diqqatini jamlashga va kompyuter dasturlaridan foydalanish hamda turli loyihalarni ishlab chiqishni tushuntirishda zamonaviy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Texnika oliy ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan informatika va axborot texnologiyalariga oid fanlarni o‘rgatishda bir qancha vaqt va izlanishlar talab etiladi. Ya’ni auditoriyada o‘tilgan mashg‘ulotlar yordamida talabalarning axborot texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirishda bir qancha qiyinchiliklar tug‘diradi. Shu bois, talabalarning axborot texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirishda masofaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish lozim. Bu o‘z navbatida masofaviy o‘quv vositalarni ishlab chiqishni taqozo etadi. Shuning uchun informatika va axborot texnologiyalariga oid fanlardan masofaviy ta’lim uchun <http://www.competentum.ru>, <http://www.prometeus.ru>, <http://moodle.org/>, <http://www.learnware.ru/>, <http://www.uniar.ru/dt-docent.html>, <http://dlc.miem.edu.ru/newsite.nsf/docs/works1.html>, <http://www.labview.ru>, <http://mastersolution.ru/> kabi qobiq dasturlardan foydalanish tavsiya etiladi. Bular yordamida texnika oliy ta’lim muassasalari talalabarining informatika va axborot texnologiyalariga oid fanlarni istalgan vaqtida va joyda ta’lim olishga hamda ularning kompyutering amaliy va instrumental dasturlari yordamida mustaqil ravishda loyihalar ishlab chiqishga oid kreativ fikrlashini rivojlantiradi.

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan zamonaviy o‘quv vositalar quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi:

- masofaviy o‘qitish tizimlarni ishlab chiqish;
- onlayn baholash tizimlarni ishlab chiqish;
- elektron ta’lim resurslarni bulutli xizmatlarda saqlash va foydalanish;
- texnika oliy ta’lim muassasalarida informatika va axborot texnologiyalariga oid fanlardan ma’ruza, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarni zamonaviy texnologiyalar yordamida tashkil etish;
- talabalarning motivatsiyasini oshiradi hamda darslarni yuqori estetik va emotSIONAL bosqichlarda olib chiqadi;
- differensial ta’lim olish imkonini yaratadi;

- informatika va axborot texnologiyalariga oid onlayn viktorinalar o‘tkazish;
- tarmoq orqali dasturlashga oid loyiha va guruh ishlarini muhokama qilish;
- virtual muhitlarda jamoa bo‘lib kompyuter texnologiyalari uchun turli dasturiy mahsulotlar ishlab chiqish;
- mustaqil topshiriqlarni onlayn tartibda olish va topshiriqlarni jo‘natish;
- talabalar axborot texnologiyalariga doir o‘zini-o‘zi mustaqil baholash;
- o‘tkaziladigan oraliq va yakuniy nazoratlarni onlayn tartibda bajarish;
- professor-o‘qituvchi va talabalar o‘rtasida teskari aloqa almashishni ta’minlash.

Keltirilgan imkoniyatlar yordamida texnika oliy ta’lim muassasalari talabalarning kompyutering amaliy va instrumental dasturlaridan samarali foydalanishga, kompyuter uchun zamonaviy o‘qitish, boshqaruva tizimlarini ishlab chiqishga o‘rgatishga erishiladi.

**Tahlil va natijalar.** Texnika oliy ta’lim muassasalari talabalarini axborot texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirishning zamonaviy vositalaridan foydalanishni samaradorlik darajasini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari olib borildi. Tajriba-sinov ishlari Navoiy davlat konchilik instituti talabalarini jalb etilib, ular tajriba (123 nafar) va nazorat (126 nafar) guruhlariga ajratildi. Tajriba guruhiga tadqiqot doirasida taklif etilayotgan zamonaviy o‘quv vositalardan foydalanib informatika va axborot texnologiyalariga oid fanlarni o‘qitishda va talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etishda qo‘llanildi. Nazorat guruhiga esa bu imkoniyat berilmadi. Ushbu tajriba-sinovga jalb etilgan talabalarning natijalari tahlil etilib, ishonchlilagini tekshirish maqsadida Styudent-Fisher kritepiyasi asosida matematik-statistik tahlil etildi. Mazkur kriteriyadan foydalanishda tanlanmalar uchun mos o‘rta qiymatlar  $\bar{X} = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^3 n_i X_i$ , tarqoqlik koeffitsiyentlarini  $D_n = \sum_{i=1}^3 \frac{n_i (x_i - \bar{X})^2}{n - 1}$  formuladan

foydalanildi. Hisoblash natijasiga ko‘ra, tajriba guruhining o‘zlashtirish ko‘rsatkichi nazorat guruhiga nisbatan yuqori ekanligi, ya’ni 8,9 % ga oshganligi ma’lum bo‘ldi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib, aytganda texnika oliy ta’lim muassasalari

talabalarining axborot texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirishda yuqorida keltirilgan interaktiv doskalardan, bulutli xizmatlarda, bulutga asoslangan platformalardan, masofaviy o‘qitish tizimlaridan, axborot-ta’lim muhitlaridan, ta’lim portallaridan va ta’limga oid web-saytlardan foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi. Bular yordamida texnika oliy ta’lim muassasalari talabalarini rivojlanib kelinayotgan raqamli texnologiyalardan xabardor bo‘lishi va kelajakdagi kasbiy faoliyatida avtomatlashtirilgan vositalardan samarali foydalanishga tayyorlash imkonini beradi.

### **Adabiyotlar**

1. Mirsanov U.M. Uzluksiz ta’lim tizimida dasturlash texnologiyalarini o‘qitish metodikasini takomillashtirish // Pedagogika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. – Navoiy, 2023. – 332 b.
2. Ruziyeva D.R. Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida dasturlash tillarini o‘qitish metodikasini takomillashtirish // Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. –Buxoro, 2023. – 179 b.
3. Toxirov F.J. Oliy ta’lim muassasalarida talabalarning dasturlashga oid algoritmik fikrlashini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish // Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. – Qarshi, 2022. – 172 b.
4. Норбеков А.О. Педагогика олий таълим муассасаларида компьютер таъминоти фанини ўқитиш самарадорлигини ошириш методикаси // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган Диссертация. – Карши, 2021. –171 б.
5. Файзиева М.Р. Ўқув жараёнига мослашувчи WEB тизимларни яратиш // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 2017. – 189 б.
6. Nuraliyeva P.E. Talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish metodikasini takomillashtirish // Pedagogika

---

fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Chirchiq, 2023. – 48 b.

7. Каюмова Н.А. Электрон таълим мухитида бўлажак информатика ўқитувчиларини интегратив ёндашув асосида тайёрлаш методикасини такомиллаштириш // Педагогика фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. Тошкент, 2022. – 70 с

8. Luís Filipe Leite Barbosa. Boas Práticas na Programação Orientada a Objectos a Adoptar pelos Alunos de Informática do Ensino Superior. Tese de Doutoramento em Informática. Adelaide Isabel dos Santos Vieira Braga Sampaio Orientação de. Vila Real, 2017. – 396 p.

9. Ивкина Л.М. Формирование методической готовности будущих учителей информатики в условиях образовательной платформы «мега-класс» // Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. Красноярск – 2017. – 145 с.

10. Arturo Rojas López. Escenarios de aprendizaje personalizados a partir de la evaluación del pensamiento computacional para el aprendizaje de competencias de programación mediante un entorno b-Learning y gamificación. Octubre 2019. – 266.